



O'ZBEKISTONDA SOLIQDAN QOCHISH OQIBATLARINING NAZARIY ASOSLARI TAHLILI

Raxmanov Laziz Erkabaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotation

Mazkur maqolada respublikamizda so'nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rGANilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev, "moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga nisbatan e'lon qilingan moratoriyning muddati tugagani, lekin, bu yana eski usulda yoppasiga tekshir-tekshirlarni boshlab yuborish mumkin degani emasligi, 2020 yilning birinchi choragida, ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy intizim joriy etilishi shartligini qayd etdilar." Bugungi kunda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurash dunyoning ko'plab mamlakatlarida dolzarb muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida ham xufiyona iqtisodiyotning ko'lami yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Jamiyatning iqtisodiy bo'g'inining bir maromda borishini ta'minlash davlat hokimiyyati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, ular zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklatiladi. Bu majburiyatlar huquqiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy va iqtisodiy shakllarda bo'lib, iqtisodiy



majburiyatlar sirasiga noqonuniy pul birliklarini ishlab chiqmaslik, noqonuniy boshqa faoliyat bilan shug‘ullanmaslik, erkin tadbirkorlik faoliyatini ochiq shaklda va davlat ro‘yxatidan o‘tgan holda amalga oshirish, umumjamiyat manfaatlari uchun qonuniy va majburiy tartibda joriy qilingan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilidan kelib chiqib o‘z vaqtida davlat byudjeti va boshqa fondlarga to‘lab borish kabi iqtisodiy-huquqiy majburiyatlardan iborat bo‘ladi. Aksariyat davlatlar bu kabi majburiyatlar ularning bosh qomusi-Konstitutsiyasida muhralanib ham qo‘yishadi. O‘zbekiston Respublikasida esa uning Konstitutsiyasing 51-moddasida quyidagi mazmunda “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahridagi Soliq kodeksining Majburiylik prinsipi deb nomlangan 8 moddasida esa, “har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig‘imlarning barcha alomatlariga ega bo‘lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas” deb belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda yuridik va jismoniy shaxslarga Konstitutsiyada yuklatilgan iqtisodiy-moliyaviy majburiyatarning mantiqiy davomi sifatida bu kabi majburiyatlarni og‘irlashtiruvchi holatlarga olib kelmaslikning ma’lum bir chegarasi ham belgilab qo‘yilgan. Bunday cheklovlar sifatida soliq Kodeksining 10-moddasida “Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi” mazmunidagi soliq to‘lovchilarining manfaatlarini himoyalanuvchi normalar ham kiritilganki, soliq to‘lovchilarga yuklatilgan moliyaviy majburiyatlar adolatlilik prinsiplaridan chiqib ketib, jamiyatga, ayniqsa davlat byudjetiga iqtisodiy zarar kelishining oldini olishga erishish asosiy maqsad qilib olingan.

Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish va soliqlarni maqbullashtirish (optimallashtirish) degan jarayonlar ham borki, ularni ham ayrim hollarda soliqlarni to‘lamaslik holati deb tushuntirishlar ham uchraydi (bu haqda keyingi paragrafda to‘xtalib o‘tiladi), mazmunan olib qaralgan soliqlarni maqbullashtirish soliq to‘lovchining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy normalarga asoslanib qanchalik soliqdan kamroq to‘lsa imkoniyatidan foydalanish hisoblanadi. Bunda davlat

byudjeti manfaatlarini inkor qilmagan holda soliq to‘lovchining o‘z manfaatlarining ustunlik tamoyilidan kelib chiqib, alohida moliyaviy siyosatning ishlab chiqilishidir. Shu jihatdan olganda soliqdan qochish va uni to‘lamaslikning turli xil ko‘rinishlari soliqqa oid huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Albatta, bu yerda soliqqa oid huquqiy munosabatlar deyilganda soliqlarni to‘lamaslik bilan bog‘liq holatlar uchun javobgarlik choralaridan ogohlantirish va huquqiy masalahatlar berish bilan bog‘liq targ‘ibot ishlari ham tushuniladiki, ammo, moliyaviy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralari soliqqa oid huquqbuzarlikdan kelib chiqib qo‘llaniladi.

Agar, iqtisodiy, huquqiy va mantiqiylar yondoshiladigan bo‘lsa, “soliqdan qochish”, “soliqdan bo‘yin tovlash”, “soliqqa oid huquqbuzarlik”, “moliyaviy qonunbuzilishlar”, “soliqqa oid xatoliklar”ning zamirida bir necha omillar mavjud bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 22-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchilar zimmasiga yana bir qator moliyaviy majburiyatlar (“hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi, soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi, o‘zi soliq bo‘yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to‘g‘risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo‘lsa, xabardor etishi” va shu kabilar), yuklatilgan bo‘lib, bu majburiyatlarni bajarmaslik ularning zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarni to‘liq bajarmaslikka olib keladi, bu esa ko‘plab huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Chakana savdo, umumiylar ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlarida xaridni amalga oshirgan va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro‘yxatdan o‘tkazishni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.





Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th April, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

Faoliyat ko'rsatmayotgan yoki elektron hisobvaraq-faktura tizimidan foydalanimayotgan hamda onlayn nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlanmagan tadbirkorlik sub'ektlarini hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarni birja savdolarida ishtirokini cheklash mexanizmini joriy etish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев, У.(2022). Ҳукуматимиз томонидан солик маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солик ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35
3. Нормурзаев U. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954